



OSTEOARTRIT KASALLIGIDA NYAQV-INDUKTSIYLANGAN
GASTROPATIYANING OLDINI OLISHDA YANGI YONDASHUVLAR

Mirzayev O.V

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti., 3-ichki kasalliklar kafedrası PhD., dotsent Samarqand,
O'zbekiston*

Nurmamatov J.X

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti., 3-ichki kasalliklar kafedrası 1-kurs magistratura rezidenti
Samarqand, O'zbekiston*

Qudratov J.A

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti., 3-ichki kasalliklar kafedrası klinik ordinatori Samarqand,
O'zbekiston*

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyoda bo'g'im kasalliklari soni va salmog'i ortib bormoqda jumladan revmatoid artrit, reaktiv artrit, infeksiyon artritlar hamda osteoartritlar. Osteoartrit (OA) bo'g'imlarning degenerativ kasalligi bo'lib, asosan bo'g'im tog'ayini zararlaydi. OA da bemorlar deyarli doimo og'riq sezadilar, chunki kasallik asosida yallig'lanish yotadi. Yallig'lanishga qarshi dori vositalari OA da eng ko'p qo'llaniladigan dori vositalaridan biridir, chunki ular yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega. O'z navbatida muntazam NYAQVlarni qo'llash bir qancha nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarmoqda, jumladan oshqozon ichak traktiga ham.

Kalit so'zlar: Osteoartrit, yallig'lanish, bo'g'im sindromi, NYAQV, dispepsiya, gastropatiya, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasi..

JSST ta'rifiga ko'ra, osteoartrit (OA) - bu asosan bo'g'im tog'ayini zararlaydigan bo'g'imlarning degenerativ kasalligidir. Kasallikning paydo bo'lish chastotasi yosh ortishi bilan ko'payib boradi. OA rivojlangan mamlakatlardagi 10 ta eng keng tarqalgan nogironlik sabablaridan biridir.

Noto'g'ri turmush tarzi, jumladan gipodinamiya va uzoq muddatli statik yuklamalar, suyak mineral zichligining pasayishi, ortiqcha tana vazni, metabolik buzilishlar (qondagi glikozillangan gemoglobin darajasi yuqori bo'lgan 2-tur qandli diabet), genetik moyillik (oilaviy anamnez) va jarohatlar osteoartroz rivojlanishining asosiy xavf omillari hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki og'ir jismoniy mehnatni (qishloq xo'jaligi ishlari, tomorqadagi ishlar) ham OA kelib chiqish xavfi omillaridan bir bo'lib hisoblanadi 1 yildan 9 yilgacha og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanganda OA rivojlanish xavfi 4,5 barobar, 10 yil va undan ortiq vaqt davomida esa 9,3 barobar oshadi. Dunyoning turli mamlakatlarida 60 yoshdan oshgan shaxslar orasida OA ning tarqalishi o'rtacha erkaklarda 9,6% ni va ayollarda 18,0% ni tashkil etadi.

Shu bilan birga, OA bilan og'rigan bemorlarning 80 foizi bo'g'implarda harakatchanlik cheklanishini boshdan kechiradi, 25 foiz bemorlar esa kundalik fiziologik funksiyalarning ko'p qismini bajara olmaydilar.



OA ning bemorlar hayot sifatini yomonlashtiradigan asosiy belgisi og'riqdir. Bemorlar deyarli doimiy ravishda og'riq his qiladilar, chunki kasallik asosida yallig'lanish yotadi, ammo og'riq darajasi ko'plab omillar tufayli katta o'zgaruvchanlikka ega va ko'pincha bo'g'imdagi o'zgarishlar yaqqolliigi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmaydi.

Og'riqni yo'qotish uchun yallig'lanishga qarshi nosteroid dorilar (YAQNDV) eng ko'p qo'llaniladi. Ular bir yilda buyuriladigan barcha dori vositalarining taxminan 5-10 foizini tashkil etadi va keksa bemorlarda eng ko'p buyuriladigan preparatlardan biri hisoblanadi. Masalan, 65 yoshdan oshgan bemorlarda umumiy amaliyotda YAQNDVni qo'llash tarqalishi 90 foizdan yuqori hisoblanadi, va 60 yoshdan oshgan bemorlarning kamida 7,3 foizi bir yil davomida hech bo'lmaganda bir marta YaQNDV qabul qilgan.

Tadqiqot maqsadi: Osteoartrit bilan og'rikan bemorlarda yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalarini qo'llash natijasida yuzaga keladigan gastropatiyalarni oldini olish va zamonaviy dori vositalarni qo'llash ahamiyatini o'rganish.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar (NYAQD) o'tkir yoki surunkali og'riqni patogenetik davolashning samarali vositasi bo'lib, klinik amaliyotda ham, kundalik hayotda ham yetarlicha keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda YAQNDV arsenali sezilarli darajada yangi dori vositalari bilan to'ldirildi, yuqori samaradorlikka va yaxshilangan chidamlilikka ega dori vositalarini yaratish yo'nalishida izlanishlar olib borilmoqda.

YAQNDV farmakologik guruhi shartli ravishda ikki kichik guruhga bo'linadi: selektiv (s-YAQNDV) va noselektiv (n-YAQNDV). YAQNDV ning asosiy ta'sir mexanizmi bog'liq. siklooksigenaza (SOG-1 va SOG-2 SOG fermenti) YAQNDV uchun asosiy nishon hisoblanadi. Amaliyotda, albatta, vaziyat har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Eng ko'p uchraydigan nojo'ya ta'sirlarni sanab o'tamiz. YAQNDV qo'llanilganda yuzaga keladigan ta'sirlar:

- oshqozon-ichak tizimi dispeptik reaksiyalar ko'rinishida, gastroduodenal yaralar, oshqozon ichakdan qon ketishi va perforatsiyalar.

- Yurak qon tomir tizimi patologiyalari qon aylanish tizimida dimlanishlar, shoshlar, qon bosimi ko'tarilishi

- Buyrak siydik ajratish tizimida nefropatiylar shular jumlasidandir.

Ovqat hazm qilish tizimining nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar (NYQD) ta'sirida zararlanishining rivojlanishida NYQD dori shakllari ahamiyatga ega emas, chunki asoratlarning patogenezi asosan dorilarning oshqozon-ichak trakti shilliq qavatiga tizimli ta'siri bilan belgilanadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni ta'kidlash joizki, YAQNDV juda ko'p hollarda va turli mutaxassislar tomonidan buyuriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, YAQNDV qo'llash natijasida gastropatiya va boshqa noxush hodisalar rivojlanish xavfi mavjud.

Ushbu maqolada e'tiborni tortadigan noan'anaviy multidissiplinar vazifa - YAQNDV qo'llash fonida OA bilan og'rikan bemorlarda noxush hodisalar rivojlanish ehtimolini pasaytirish masalasi yotadi. OA uchun simptomatik sekin ta'sir qiluvchi dorilar (osteoartroz uchun simptomatik sekin ta'sir etuvchi dorilar,



SYSADOA-osteoartrit uchun simptomlarni yengillashtiruvchi sekin ta'sir etuvchi dori vositalari) tavsiya etiladi. Bu guruhga ham og'iz orqali, ham parenteral qo'llaniladigan preparatlar kiradi.

Parenteral shakllar yuqori biologic o'zlashtirilishi tufayli alohida e'tiborga loyiqlik, chunki preparat ichak mikrobiotasi ta'sirida fermentativ o'zgarishlarga va parchalanishga uchramaydi yuqori biosinguvchanlikka ega (preparat ichak mikrobiotasi ta'sirida fermentativ o'zgarishlarga va parchalanishga uchramaydi).

Binobarin, YAQNDV ning ichakda eriydigan shakllari va eritmalar tayyorlash uchun mo'ljallangan dori vositalari, rektal shamchalar va YAQNDV ning inyeksion shakllari ham oddiy tabletkalar kabi oshqozon yarasi va eroziyasi rivojlanishiga sabab bo'ladi. YAQNDV ning mahalliy shakllari bundan mustasno.

Parenteral shakllar yuqori biosinguvchanlik tufayli alohida e'tiborga loyiqlik, chunki preparat ichak mikrobiotasi ta'sirida fermentativ o'zgarishlarga va parchalanishga uchramaydi. SYSADOA guruhiga mansub parenteral preparatlardan biri xondroitin sulfat preparatidir. Bundan tashqari me'da va ichak tizimi himoyasi uchun PPI hamda kislotalilik buzilishi bilan bog'liq kasalliklarni davolash uchun preparatlar Rebapimid ishlatilishini o'rganishni talab qiladi.

OAni davolash, ayniqsa komorbid kasalliklar mavjud bo'lganda, dolzarb masala bo'lib qolmoqda. YAQNDV preparatlarini qo'llash, ayniqsa shifokor tavsiyasisiz yoki uzoq muddat davomida ishlatish, ko'pincha oshqozon-ichak traktida asoratlarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. OA davolash natijalarini yaxshilashning bir usuli qo'shimcha ta'sirga ega bo'lgan xondroprotektorlarni va IPP va qo'llash samarasi ko'p ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Насонов Е.Л. Нестероидные противовоспалительные препараты (Перспективы применения в медицине). М.: Анко; 2000 [Nasonov E.L. Nonsteroidal antiinflammatory drugs (Perspectives for use in medicine). M.: Anko; 2000 (in Russ.)].

2. Каратеев А.Е., Успенский Ю.П., Пахомова И.Г., Насонов Е.Л. Прием НПВП и патология пищевода: связь с основными симптомами гастроэзофагеальной рефлюксной болезни, частота развития и факторы риска эрозивного эзофагита // Экспериментальная и клиническая гастроэнтерология. 2008. № 3. С. 6–11

3. Jones. Nonsteroidal anti-inflammatory drug-associated dyspepsia: basis mechanisms and future research // Am J Med. 2001. Vol. 8 (110). P. 14–18.

4. Babamuradova Z.B., Shodikulova G.Z., Mirzaev O.V. Treatment of patients with undifferentiated connective tissue dysplasia in mitral valve prolapse with varying degrees of mitral regurgitation // European Science Review – Vena, 2018. – Volume 3-4, March-April. – P.140 1439.

5. Shodikulova G.Z., Babamuradova Z.B., Occurrence of clinical options of undifferentiated connective tissue dysplasia in uzbek population// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Volume 24-Issue



6. Шодикулова Г., Бабамурадова З., Мирзаев О. Biriktiruvchi to'qima differentsiallashmagan displaziyasi bor bemorlarda to'qima remodellashtirish holatini baholash // Журнал биомедицины и практики. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 154-159
7. Mantry P., Shah A., Sundaram U. Celecoxib associated esophagitis: review of gastrointestinal side effects from COX-2 inhibitors // J Clin Gastroenterol. 2003. Vol.37. P. 61-63.
8. Каратеев А.Е., Насонов Е.Л., Яхно Н.Н. и др. Клинические рекомендации «Рациональное применение нестероидных противовоспалительных препаратов (НПВП) в клинической практике». Современная ревматология. 2015;9(1):4-23.
9. Shodikulova G.Z., Mirzaev O.V., Samatov D.K., Распространенность и клинико-генетические особенности дисплазии соединительной ткани у лиц узбекской популяции “Журнал кардиореспираторных исследований” 2023;№ 1 95-99